

TURKIY TILLARDAGI RASMIY USLUBGA XOS ARABCHA O'ZLASHMALARNING FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Orazbayev E.

Qoraqalpoq davlat universiteti

Har qanday adabiy tilning rivojlanganlik belgisining bir qirrasini o'sha tildagi rasmiy uslubning qay darajada ishlanganligi, qoliplashganligida ko'rinadi. Shu bilan birga rasmiy uslubga xos terminlarning bir ma'noliligi, hujjat mazmun-mohiyatini to'la o'zida aks ettira olish miqyosi, tushunarli kabi talablar ham borki, ushbu mezonlar adabiy tilning keng ma'nodagi lisoniy hamjamiyat talabalariga to'liq javob berishi va undan foydalanishni ta'minlovchi jihatlaridan hisoblanadi. "Zero, hujjatlar kechagina paydo bo'lgan narsa emas, kishilik jamiyati shakllanishi bilan bu jamiyat a'zolari o'zaro munosabatlaridagi muayyan muhim holatlarni muntazam va qat'iy qayd etib borishga ehtiyoj sezganlar" [1: 6].

Shu ma'noda asrlar davomida bir-birini tarjimonsiz tushuna oladigan turkiy xalqlar, jumladan o'zbek, qoraqalpoq, turkman xalqlari adabiy tilida fan, texnika, adabiyot, san'at, madaniyat, sport sohalarini rivojini natijasida, shuningdek, istiqloq sharoiti va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar o'zgarishi fonida rasmiy uslubga xos bir qator terminlar shakllandiki, ularni aniq tillar misolida qiyosan o'rganish, funksional-semantik tomondan izohlash, tarjima qilish, lug'atlar tuzish ehtiyojini kun tartibiga ko'ndalang qo'yimoqda. Ayniqsa, bu jihatdan rasmiy uslub doirasida qo'llaniladigan terminlar juda muhim ahamiyat kasb etmoqda, chunki hozirgi davrda ushbu tillar o'rtasida o'zaro rasmiy ish yuritish va rasmiy yozishmalar tili maqsadga muvofiqligini ta'minlash, rasmiy hujjatlar matnidagi tarjima muammolarini bartaraf etish zarurati kelib chiqmoqda. Ushbu omillarni hisobga olgan holda quyida o'zbek, qoraqalpoq va turkman tillarining rasmiy uslubida qo'llaniladigan arabcha o'zlashmalar asosida hosil bo'lgan ba'zi terminlarni semantik-funksional jihatdan qiyosiy tahlil qilamiz. Alohida ta'kidlash lozimki, har uchala turkiy tilda arabcha o'zlashmalar asosida hosil bo'lgan bir xil (kam holatlardagina farqli) hujjat nomlari, rasmiy qoliplar ancha miqdorni tashkil qiladi. Quyidagi ana shunday misollarga e'tibor qaratamiz:

№	o'zbekcha	qoraqalpoqcha	turkmancha
1	hujjat	hújjet	resminama
2	omonat	amanat	amanat
3	ariza	arza	arza
4	huquq	huquq	hukuk
5	ma'muriy	hákimshilik	administratiw
6	bayonot	bayanat	be'yannama
7	kafolat (xati)	kepillik	kepilnama
8	muhr	mór	möhür
9	lavozim	lawazim	weziye
10	hisobot	esap	hasabat
11	devonxona	diywanxana	diwanhana
12	guvohnoma	gúwalıq	şahadatnama

Shuni alohida qayd etish joizki, rasmiy uslubga xos arabcha o'zlashmalar asosida hosil qilingan terminlar, ayniqsa idoraviy-devonxona hujjatlari nomlari tarkibida fors-tojikcha **-noma/-nama** – "xat, maktub" ma'nosini ifodalovchi komponent qo'shilishi bilan yasalgan so'zlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Eski o'zbek adabiy tilida **noma** mustaqil so'z sifatida "xat, maktub" ma'nosida qo'llanilgan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida mazkur lug'aviy birlik kitobiy so'z xarakteriga ega, **-noma** bir qator arabcha so'zlar bilan qo'shib, rasmiy hujjat nomlarini yasashda faol qatnashadi: *shartnoma*, *bayonnoma*, *dalolatnoma*, *tavsifnoma*, *tavsiyanoma*, *ma'lumotnoma*, *vasiyatnoma*, *tavsiyanoma*, *guvohnoma*, *taklifnoma*, *talabnoma* va boshqalar. Qoraqalpoq tilida **noma** mustaqil lug'aviy birlik sifatida qo'llanilmaydi. 1980-yillardan e'tiboran qoraqalpoq tilida **-nama** affiksoidining so'z yasash imkoniyati orta bordi [2: 58]. Hozirgi qoraqalpoq adabiy tilida hujjat nomlarini yasashda eng faol qo'shimcha hisoblanadi: *shártnama*, *vásiyatnama*, *mağlıwmatnama*, *usınısnama*, *mirátnama*, *talapnama* [3: 432] va h.k.

Shuningdek, hozirgi qoraqalpoq adabiy tilida "kuy, musiqa" ma'nosida qo'llaniladigan **noma** so'zi ham mavjud bo'lib [4: 218], ushbu so'z ham asli fors-tojik tilidan o'zlashgan **noma** lug'aviy birligining metonimiya asosida ma'no ko'chishidan hosil bo'lgan. Ya'ni **noma** so'zi sememasidagi "xat, maktub" asosiy semasi bilan birga "she'riy shaklda yozilgan xat", "kuy, qo'shiq", "she'riy maktub" semalari ham ajratilgan va aynan shu sema asosida qoraqalpoq tilida "kuy, musiqa" ma'nosidagi **noma** so'zi yasalgan. Qoraqalpoq tilining keyingi davrlardagi taraqqiyotida mazkur so'zning "xat, maktub" ma'noviy aloqasi uzilishi natijasida eski qoraqalpoq tili leksikasidagi **noma** so'zi va hozirgi qoraqalpoq adabiy tilidagi mazkur lug'aviy birlik (shuningdek, **-nama** affiksoidi) omonimga aylangan.

Mustaqillik yillarida o'zbek tilida **-noma** qo'shimchasi bilan *asosnoma*, *so'rovnoma*, *yo'riqnoma* kabi bir qator yangi yasamalar hosil bo'ldi. Endilikda ikki tilda ham **-noma/-nama** qo'shimchalari "so'z yasalishidan anglashiladigan biror yozilgan narsa" ma'nosini ifodalovchi narsa oti yasashi shubhasizdir.

Qoraqalpoq tili lug'at tarkibidagi *xabarnama*, *ruksatnama*, *sorawnama*, *mağlıwmatnama* singari yasamalar bevosita o'zbek tilining ta'siri natijasida kirib kelgan. Mustaqillikdan keyin Qoraqalpog'iston hududida o'zbek va qoraqalpoq tillari davlat tili sifatida yonma-yon iste'molda bo'lyapdi. Bu, albatta tillarning bir-biriga ta'sir qilishiga imkon yaratdi [5: 18]. Hozirgi turkman adabiy tilida **-nama**, asosan, arab-fors tilidan o'zlashgan so'zlarga qo'shiladi va rasmiy yoki norasmiy hujjatlar, xatlarning nomini yasashga xizmat qiladi [6: 23]: *ähtnama*, *şertnama*, *subutnama*, *be'yannama*,

borçnama va b. XX asrning 90-yillaridagi turkman tili, alifbo, imlo masalalaridagi islohatlar natijasida rus tilidagi rasmiy hujjatlar nomlari oʻrniga **-nama** komponenti orqali koʻplagan rasmiy hujjatlar nomlari yasalganini koʻrishimiz mumkin: *resminama*, *häsıyetnama* (*xarakteristika*), *kepilnama* (*kafolat xati*), *hödürnama* (*rekomentatsiya*) va hokozolar [7: 39-59].

Maʼlumki, rasmiy uslub morfologik-sintaktik qurilishiga koʻra barqaror, qoliplilik xususiyatiga ega matn hisoblanadi. Bu xususiyat hujjat nomlari, biror huquqiy holat ifodasi sifatida yuzaga keladigan shablonlarga ham xos. Shunday boʻlsa ham, oʻzbek, qoraqalpoq va turkman tillaridagi arabcha oʻzlashmalar asosida hosil qilingan rasmiy uslubga xos terminlar nomlanishi, tarkibi jihatdan turli xil koʻrinishga ega. Jumladan, ularni quyidagicha koʻrsatish mumkin:

1. Nomlanishi va tarkibi har uchala tilda arabcha lugʻaviy birliklar (baʼzi fonetik farqlilikka ega): *omonat-amanat-amanat*, *ariza-arza-arza*, *hisobot-esap-hasabat*, *devonxona-diywanxana-diwanhana*, *muhr-möhür-mór* kabi.
2. Oʻzbek tilida arabcha, qoraqalpoq va turkman tillarida ruscha lugʻaviy qatlamga xos birliklar: *xatboshi-abzac-abzas*, *maʼmuriyat-administratsiya-administrasiya*, *dalolatnoma-akt-akt* (*delilnama*).
3. Oʻzbek tilida arabcha, qoraqalpoq va turkman tillarida umumturkiy lugʻaviy qatlamga xos birliklar: *ilova-qosimsha-gosmaça*, *qayd-belgi-bellik*, *imzo-qol* (*imza*)-*gol*.

Turkiy tillar, xususan, oʻzbek tili rasmiy uslubining ildizlari uzoq oʻtmishga ega. Uning ildizlari davlatchilik tarixi, oʻzaro savdo-sotiq, tijorat va rasmiy munosabatlarning takomili bilan chambarchas bogʻliq. Hujjatchilik ishi davlatchilik tarixi bilan izma-iz yuradi. Ana shu tarixiy, siyosiy va lingvistik jarayonlar turkiy hujjatlar uslubining toʻla-toʻkis, mukammal bir qolipda shakllanishi, turkiy rasmiy uslubning kelajak ravnaqiga keng yoʻl ochib bergan [8: 22].

Oʻzbek, qoraqalpoq, turkman tillari rasmiy uslubiga xos terminlar tizimining nomlanishi, funksional-semantik jihatdan mushtarak va farqli xususiyatlar hosil qiladi. Jumladan, ushbu tillarning rasmiy uslubiga xos umumiy terminlar (*qonun-kanun-nizam*, *qaror-qarar-karar*, *hujjat-hújjet-resminama*), rasmiy qoliplar (*eʼtirof etilsin*, *málim etiw*, *talab etmek*), rasmiy matn tarkibida keladigan alohida soʻzlar (*imzo*, *ilova*), rasmiy shaxs nomlarga ishora qiluvchi soʻzlar (*rais-bashliq-bashlyk*, *mudir-bashliq*, *basqariwshi-müdir*, *shaxs*, *xodim*, *mutaxassis*), rasmiy tashkilot otlari (*muassasa*, *idora*, *mekeme*, *edara*) kabi lugʻaviy birliklarning qoʻllanilishida bir qator oʻziga xosliklar mavjudki, ularni alohida tahlil qilmasdan turib mushtarak va farqli xususiyatlarini tushunish qiyin.

Turkiy tillarda arabcha oʻzlashmalarga umumturkiy asosli feʼllarni qoʻshish orqali rasmiy uslubga xos qoʻshma soʻzlar – rasmiy uslubda qoʻllaniladigan qoliplar yaslagan. Bunday qoliplar oʻzbek tilida qoraqalpoq va turkman tillariga nisbatan miqdor jihatdan koʻpchilikni tashkil qiladi. Jumladan, oʻzbek tilida *qaror qilmoq*, *qaror chiqarmoq*, *qasd qilmoq*, *qayd etmoq*, *qabul qilmoq*, (*qatʼiy*) *eʼtiroz bildirmoq*, *qatʼiy taʼqiqarmoq*, *qatʼiy man qilmoq*, *tatbiq etmoq*, *nazorat qilmoq*, *jarima solmoq*, *kafolat bermok*, *masʼuliyat yuklamoq*, *maʼlum qilmoq*, *muhokama qilmoq*, *murojaat qilmoq*, *muzokara boshlamoq*, *talab qilmoq*, *tashrif buyurmoq* kabi ot+feʼl (qil) qolipidagi; *amalga oshirmoq*, *hisobga olmoq*, *ijaraga olmoq*, *zimmasiga yuklamoq* singari joʻnalish kelishigidagi ot+feʼl qolipidagi arabcha oʻzlashmalarga *qil*, *et* va boshqa feʼllarni qoʻshish orqali bir qancha qoʻshma feʼllar ham yasalganki, bunday qoʻshma soʻzlar, odatda, rasmiy uslubda faol ishlatiladi, shuningdek, yozma nutq koʻrinishlaridan ilmiy, publitsistik, badiiy uslublarda ham istifoda etiladi. Qoraqalpoq va turkman tillari rasmiy (yozma) uslubida bunday qoliplar kam uchraydi, sanoqli qoʻshma soʻzlarnigina uchratishimiz mumkin. Masalan, qoraqalpoq tilida: *járiyma salıw*, *qabil etiw*, *qarar shıǵarıw*, *málim etiw*, *ziyandı toltırıw*, *ziyandı óndiriw*, *shártname dúziw*; *ámelge asırıw*, *esapqa alıw*, *ijaraga alıw*. Turkman tilida: *amala aşyrmak*, *karar bermek*, *jerime salmak*, *kabul etmek*, *talab etmek*, *habar bermek* va boshqalar.

Turkiy tillarning rasmiy uslubiga xos yana bir jihat shuki, maskan, oʻrin-joy maʼnosini bildiruvchi turdosh ot leksemalar tarkibida ham arabcha oʻzlashmalar faol qoʻllaniladi: *muassasa-shólkem*, *mekeme-edara* (*учреждение*); *tashkilot-shólkem-gurama*, *edara* (*организация*); *mahkama-mekeme-edara*; *mahalla-máhálle* kabi. Bunday soʻzlar arabiy uch harfli feʼldan yasalgan zamon otlari bilan birgalikda “ism ul-makon uz-zamon” deb ataluvchi ism guruhini tashkil etadi [9: 111].

Shuningdek, rasmiy uslubda shaxs maʼnosini ifodalovchi turdosh otlari ham keng qoʻllaniladi: *rais-bashliq-bashlyk*; *mudir-bashliq*, *basqariwshi-müdir*; *rahbar-basshi-bashlyk*, *reyis*; *shaxs-shaxs-shahs*; *xodim-xızmetker-işgär*; *mutaxassis-qánige-hünärmen* va boshqalar. Rasmiy uslubda faol qoʻllanuvchi maskan va shaxs otlari tarkibiga koʻra oʻzbek, qoraqalpoq, turkman tillari leksikasidagi miqdori va semantikasi bir xil emas, albatta. Bunday lugʻaviy birliklar oʻzbek tilida miqdor jihatdan ancha koʻp va faol qoʻllanilsa, qoraqalpoq va turkman tillarida kam miqdorni tashkil qiladi.

Darhaqiqat, arabcha oʻzlashmalar turkiy – oʻzbek, qoraqalpoq, turkman tillari rasmiy uslubida alohida oʻringa ega va miqdor jihatdan salmoqli oʻringa ega (ayniqsa, oʻzbek tilida). Bu holat ushbu tillarning tarixiy-ijtimoiy holati, taraqqiyoti bilan chambarchas bogʻliq. Binobarin, ilk oʻrta asrlardan boshlab, to XX asrning boshlarigacha ushbu xalqlar yashagan hududlarda mavjud boʻlgan davlatlar, aniqrogʻi, Qoraxoniylar, Saljuqiylar, Temuriylar, Shayboniylar, Oʻrta Osiyo xonliqlari davlatchiligida mamlakat hujjatlari, ish yuritish, tarix, asosan, arab tilida olib borilgan. Buning natijasida hatto turkiy tilda yozilgan rasmiy hujjatlarga ham arabcha soʻzlarning kuchli taʼsiri yuzaga kelgan. Zotan, maʼlum bir tildagi rasmiy uslubning shakllanishida, albatta, markazlashgan davlatchilik, oʻsha tildagi davlat tilida ish yuritilishi muhim omil sanaladi. Yaʼni qaysidir millat-elat, xalq tarixan milliy davlatchiligiga ega boʻlgan boʻlsa, oʻsha xalq tilining rasmiy uslubi shakllangan, takomiliga yetgan boʻladi. Bu jihatdan oʻzbek, qoraqalpoq, turkman tillari lugʻat fondidagi rasmiy uslubga xos arabcha oʻzlashma birliklar ishtirokining qonuniyatini bir tomondan markazlashgan davlatchilik omili bilan, ikkinchi tomondan Islom dini, Qurʼoni Karim tilining taʼsiri bilan bogʻlashimiz mumkin boʻladi.

Umuman, turkiy – o‘zbek, qoraqalpoq, turkman tillardagi rasmiy uslubga xos terminlar tarkibi bir xil emas. Hozirgi o‘zbek adabiy tili rasmiy uslubida arabcha o‘zlashmalar asosida hosil qilingan terminlar, rasmiy qoliplar ancha miqdorni tashkil qiladi. Bu borada qoraqalpoq va turkman tillari rasmiy uslubida esa arabcha o‘zlashmalar asosida hosil qilingan rasmiy terminlar sanoqli, ko‘proq umumturkiy asosli so‘zlar yoki ruscha-baynalmilal terminlardan iborat. Shuningdek, hujjat nomlari, matn tarkibidagi rasmiy qoliplar haqida ham shunday fikr bildirishimiz mumkin. Darhaqiqat, mazkur tillar rasmiy uslubi tilidagi arabcha o‘zlashmalar tahlilidan shunday xulosa qilish mumkinki, ushbu tillar rasmiy uslubi tilida arabcha o‘zlashmalar salmoqli o‘ringa ega va, ayniqsa hujjat nomlarini hosil qilishda bunday lug‘aviy birliklardan keng foydalanilgan.

ADABIYOTLAR

1. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., Odilov Y. Davlat tilida ish yuritish. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. Бекбергенов А. Соңғы дәуірлерде қарақалпақ тили морфологиялық қурылысының раўажланыўы // Ҳәзирги қарақалпақ тили раўажланыўының айырым мәселелери. – Нөкис, 1993. – Б. 58.
3. Qudaybergenov M., Babajanov F., Xojanov Sh., Seytqasimov D., Jaksimova U. Mámleketlik tilde is júrgiziw. – Tashkent: ʻGafur Gulam atındaǵı baspa-poligrafiyalıq dóretiwshilik úyi, 2021. – 432 b.
4. Қарақалпақ тилинің түсиндірме сөзлігі. 7 томлық. 5-т. – Нукус: Qaraqalpaqstan, 2023. – Б. 218.
5. Казаков И.Р. Ўзбек ва қорақалпоқ тилларида от ясовчи қўшимчаларнинг қиёсий функционал-семантик тадқиқи: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. –Тошкент, 2011. – Б. 18.
6. Türkmen diliniň grammatikasy. Jogapkär redaktor Mämmedurdy Saryhanow. – Aşgabat, 2000. – S. 23.
7. Şyhyýewa O. Türkmen diliniň stilistikasy. – Aşgabat, 2010. – S. 39-59.
8. Омонов Қ.Ш. Туркий расмий услубнинг юзага келиши ва такомилли (илк ва ўрта асрлар): Филол. фан. д-ри. ... дис. автореф. –Тошкент, 2016. – Б. 22.
9. Ўроқова З. Ўзбек тилига араб тилидан ўзлашган маскан отлари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2021. - № 1.

Annotatsiya. Maqolada turkiy tillar, xususan, o‘zbek, qoraqalpoq, turkman tillaridagi arabcha o‘zlashmalarining ushbu tillar rasmiy uslubida qo‘llanilish xususiyatlari tavsiflanadi. O‘zlashma so‘zlarning o‘zlashgan tilda faol leksikasiga aylanishi uchun zarur bo‘lgan lingvistik shartlar ko‘rsatiladi. Tillarning o‘zaro ta‘siri, ijtimoiy-tarixiy sharoit, lingvistik va ekstralingvistik omillar so‘zlarning bir tildan boshqasiga o‘zlashishi uchun asos bo‘lishi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: turkiy tillar, arabcha o‘zlashmalar, rasmiy uslub, idoraviy-devonxona uslubi.

Аннотация. В статье описываются особенности употребления арабских заимствований в тюркских языках, в частности, в узбекском, каракалпакском, туркменском, в официальном стиле этих языков. Указываются лингвистические условия, необходимые для превращения заимствованных слов в активную лексику в заимствованном языке. Выявлено, что взаимодействие языков, социально-исторические условия, лингвистические и экстралингвистические факторы являются основой для заимствования слов из одного языка в другой.

Ключевые слова: тюркские языки, арабские заимствования, официальный стиль, ведомственный стиль.

Abstract. The article describes the features of the use of Arabic loanwords in Turkic languages, in particular, Uzbek, Karakalpak, Turkmen in the official style of these languages. The linguistic conditions necessary for the conversion of borrowed words into an active lexicon in the borrowed language are indicated. The interaction of languages, socio-historical conditions, linguistic and extralinguistic factors are highlighted as the basis for the assimilation of words from one language to another.

Key words: Turkic languages, Arabic loanwords, official style, departmental-divan style.